

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 28 fevraldagi «Qishloq xo'jaligida bozor mexanizmlarini keng joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 149-sonli qarori haqida

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 28 fevraldagi «Qishloq xo'jaligida bozor mexanizmlarini keng joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 149-sonli qarori ijrosini ta'minlash maqsadida Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi

QAROR QILADI:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 28 fevraldagi «Qishloq xo'jaligida bozor mexanizmlarini keng joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 149-sonli qarori ijro uchun rahbarlikka olinsin.

2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining yuqorida ko'rsatilgan qarori bilan:

a) Quyidagilar;

2018 yil 1 martdan boshlab;

paxta xomashyosini navlar va klasslar bo'yicha xarid qilish uchun davlat tomonidan kafolatlangan narxlar 1-ilovaga muvofiq;

boshqoli don ekinlarini navlar va 1 klasslar bo'yicha xarid qilish uchun davlat tomonidan kafolatlangan narxlar 2-ilovaga muvofiq;

keyinchalik mablag'larni «Agrobank» ATB tuman filiallarida joylashtirish orqali Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlarda davlat tomonidan xarid qilinadigan 2018 yil hosili paxta xomashyosini etishtirish xarajatlarini moliyalashtirish uchun ajratiladigan kredit resurslarini hududlar, oylar va xarajatlar turlari bo'yicha kafolatli taqsimlash hajmlari 3-1-3-14 va 4-1-4-14-ilovalarga muvofiq;

keyinchalik mablag'larni «Agrobank» ATB tuman filiallarida joylashtirish orqali Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlarda davlat tomonidan xarid qilinadigan 2018 yil boshqoli don ekinlari hosilini etishtirish xarajatlarini moliyalashtirish uchun ajratiladigan kredit resurslarini hududlar, oylar va xarajatlar turlari bo'yicha kafolatli taqsimlash hajmlari 5-1-5-14 va 6-1-6-14-ilovalarga muvofiq tasdiqlanganligi;

O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o'rinbosarlari J.A.Qo'chqorov va Z.T.Mirzaevga Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi va viloyatlar hokimliklarining takliflari asosida kredit resurslarining tasdiqlangan kafolatli hajmlariga o'zgartirishlar kiritish huquqi berilganligi;

b) 2018 yilning 1 martidan boshlab, mineral o'g'itlar ularni ishlab chiqaruvchilar tomonidan faqat birja savdolarida quyidagi shartlarga rioya etgan holda (ichki tarmoqlarga etkazib berishdan tashqari) sotilishi belgilab qo'yilganligi;

birja savdolariga qo'yiladigan mineral o'g'itlarning boshlang'ich narxi rentabellik hisobga olingan holda ishlab chiqaruvchilar tomonidan tannarxning 10 foizi miqdorida shakllantirilishi (boshlang'ich narxni belgilashda O'zbekiston Respublikasi Hukumatining kafolati bilan jalb etilgan kreditlar bo'yicha asosiy qarzni qoplash bilan bog'liq to'lovlar hisobga olinishi);

azot va fosfor o'g'itlar birja savdolariga ularni ishlab chiqaruvchilar tomonidan shakllantiriladigan va xaridorlar toifalari uchun tabaqalashtirilgan lotlar bo'yicha qo'yilishi, bunda birja savdolariga qishloq xo'jaligi mahsulotlarini etishtiruvchilar va tadbirkorlikning boshqa sub'ektlari, shuningdek, «O'zagrokimyohimoya» AJ korxonalarini uchun yirik lotlar (bitta lot bo'yicha 300 tonnadan ortiq) hamda faqat qishloq xo'jaligi mahsulotlarini etishtiruvchilar uchun mayda lotlar (bitta lot bo'yicha 5 tonnadan 70 tonnagacha) qo'yilishi;

2018 yilning 1 martidan 1 avgustigacha oxirgi iste'molchi bo'lgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarini etishtiruvchilarga sotiladigan azot va fosfor o'g'itlarining narxi 7-ilovaga muvofiq belgilangan cheklangan narxlardan oshmasligi, ushbu talabni buzgan shaxslar qonunchilikda belgilangan tartibda javob berishi;

boshqa turdagi mineral o'g'itlar ochiq birja savdolarida barcha toifadagi xaridorlar uchun lotlar hajmlari cheklanmagan holda va cheklangan narxlar bilan sotilishi;

mahalliy ishlab chiqaruvchilar tomonidan tayyorlangan va ushbu bandga muvofiq xarid qilingan mineral o'g'itlardan o'z ehtiyojlar uchun foydalanilishi yoki ular ichki bozorda faqat qishloq xo'jaligi mahsulotlari etishtiruvchilarga sotilishi mumkinligi.

O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o'rinbosari A.S.Sultonov O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi va «O'zkimyosanoat» AJ bilan birgalikda mineral o'g'itlarni ishlab chiqaruvchilar kesimida birja savdolariga qo'yishning har o'n kunlik jadvalini bir hafta muddatda tasdiqlash topshirilganligi;

v) 2018 yilning 1 martidan boshlab, iste'mol solig'i hisobga olingan holda to'g'ridan-to'g'ri shartnomalar bo'yicha, shu jumladan qishloq xo'jaligi mahsulotlari etishtiruvchilarga va avtomobillarga yonilg'i quyish shoxobchalariga quyidagilar uchun yagona chakana narxlar belgilanganligi;

dizel' yonilg'isiga - bir litr uchun 4600 so'm;

EKO dizel' yonilg'isiga - bir litr uchun 4700 so'm;

«O'zbekneftgaz» AJ yangi chakana narxlar preyskurantlarini uch kun muddatda barcha manfaatdor vazirliklar, idoralar, korxonalar va tashkilotlarga etkazish topshirilganligi;

g) «O`zbekneftgaz» AJning:

fermer xo`jaliklariga xizmat ko`rsatuvchi avtomobillarga yonilg`i quyish shoxobchalarini davlat-xususiy sheriklik shartlari asosida tadbirkorlik sub`ektlariga uzoq muddatli ijaraga bosqichma-bosqich berish hamda ularning qishloq xo`jaligi mahsulotlari etishtiruvchilariga neft`mahsulotlarini sotishi;

fermer xo`jaliklariga xizmat ko`rsatuvchi va uzoq muddatli ijaraga berilgan avtomobillarga yonilg`i quyish shoxobchalari tomonidan dizel`yonilg`isini ularning haqiqiy xarajatlari va rentabellikni ta`minlashidan kelib chiqqan holda belgilanadigan chegirmalar hisobga olinib, neft`bazalari bilan to`g`ridan-to`g`ri shartnomalar bo`yicha belgilangan narxlarda sotib olishi to`g`risidagi takliflariga rozilik berilganligi;

d) Paxta xomashyosi va boshqoli don etishtirishni moliyalashtirish uchun oylarga bo`lingan kredit resurslarining kafolatlangan hajmi tegishli tuman hokimi tomonidan O`zbekiston fermer, dehqon xo`jaliklari va tomorqa er egalari tuman kengashi bilan birgalikda agrotexnik tadbirlar (xaritalar) asosida paxta xomashyosi hamda boshqoli don etishtiruvchilar bo`yicha tasdiqlanishi;

tijorat banklarining tumanlar filiallari paxta xomashyosi va boshqoli don etishtirishni maqsadli moliyalashtirish uchun kredit liniyalarini kontraktatsiya shartnomasi hamda kredit resurslarining tasdiqlangan va kafolatlangan hajmi asosida har bir ishlab chiqaruvchi bo`yicha ochishi;

tijorat banklarining tumanlar filiallariga paxta xomashyosi hamda boshqoli don etishtiruvchilar bilan birgalikda kredit resurslarining tasdiqlangan va kafolatlangan oylik hajmi doirasida moliyalashtirish hajmlari hamda yo`nalishlariga 15 foizgacha o`zgartirishlar kiritish huquqi berilishi;

Jamg`arma mablag`lari tijorat banklarida paxta xomashyosi hamda boshqoli don etishtiruvchilarga maqsadli kredit ajratish uchun yillik 1 foiz stavkasi bo`yicha 14 oygacha bo`lgan muddatga joylashtirilishi;

paxta xomashyosi hamda boshqoli don etishtiruvchilar xarid qilinadigan moddiy-texnik resurslar (o`simliklarni kimyoviy himoya qilish vositalari, mineral o`g`itlar va yonilg`i-moylash materiallari) uchun oldindan 100 foiz to`lov to`lamlari;

xarid qilingan moddiy-texnik resurslar to`lov to`langan kundan boshlab besh kundan kechiktirmasdan etkazib berishi;

ajratilgan kredit mablag`laridan maqsadli foydalanish yuzasidan tijorat banklarining tumanlar filiallari tomonidan monitoring olib borilishi va tijorat bankingning tuman filiali rahbari zimmasiga monitoringning tegishli ravishda olib borilishi uchun javobgarlik yuklanishi;

davlat buyurtmasi hajmlari bo`yicha paxta xomashyosi va boshqoli don etishtirishni moliyalashtirishga doir belgilangan mexanizmining faoliyat ko`rsatishi, o`zaro hisob-kitoblarning o`z vaqtida amalga oshirilishi va moddiy-texnik resurslarning to`liq etkazib berilishi hamda xizmatlar ko`rsatilishini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o`rinbosari va O`zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining Davlat moliyaviy nazorati bosh boshqarmasining birlashtirilgan xodimi zimmasiga yuklanishi belgilab qo`yilganligi;

e) Quyidagilar;

Paxta xomashyosi va boshqoli don etishtirish xarajatlarini, shuningdek, paxta-to`qimachilik ishlab chiqarishlarini moliyalashtirish tartibi to`g`risidagi nizom 8-ilovaga muvofiq;

paxta xomashyosi va boshqoli don etishtiradigan fermer xo`jaliklariga kredit ajratish sxemasi 9-ilovaga muvofiq;

paxta xomashyosi va boshqoli don etishtiradigan fermer xo`jaliklarini dizel`yonilg`isi bilan ta`minlash sxemasi 10-ilovaga muvofiq;

paxta xomashyosi va boshqoli don ekinlari etishtiradigan fermer xo`jaliklarini mineral o`g`itlar bilan ta`minlash sxemasi 11-ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi;

j) O`zbekiston Respublikasi Qishloq xo`jaligi vazirligiga Iqtisodiyot vazirligi va Moliya vazirligi bilan birgalikda paxta xomashyosini yig`ib-terib olish bosqichlariga (mavsumlariga) qarab, 2018 yil hosili paxta xomashyosini yig`ib-terib olish uchun tavsiya etilayotgan mehnatga haq to`lashning tarif stavkalarini 2018 yilning 1 avgustigacha O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga tasdiqlash uchun kiritish topshirilganligi;

z) O`zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga birja savdolarida mineral o`g`itlarni xarid qilish va paxta xomashyosi hamda boshqoli don ekinlari etishtiruvchilarga etkazib berish uchun yillik 3 foiz stavka bilan «O`zagrokimyohimoya» AJga aylanma mablag`lar bo`yicha kredit ajratish maqsadida «Agrobank» ATBga bir hafta muddatda 400 milliard so`m miqdoridagi mablag`larni yillik 1 foiz stavka bilan depozitga joylashtirishni ta`minlash topshirilganligi;

i) O`zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga:

«O`zagrosug`urta» sug`urta kompaniyasi bilan birgalikda jahon tajribasini chuqur o`rgangan holda, qishloq xo`jaligi ekinlari hosilini sug`urtalash mexanizmini takomillashtirishga doir takliflarni bir oy muddatda ishlab chiqish va Vazirlar Mahkamasiga kiritish;

paxta xomashyosi va boshqoli don etishtiradigan fermer xo`jaliklarini moliyalashtirish uchun mablag`lar vaqtincha etishmaganda (kassa o`zilishida) Jamg`armaga asoslangan hisob-kitoblar bo`yicha byudjetdan foizsiz ssuda ajratish;

zarurat bo`lganda, «O`zneftmahsulot» AJga agrotexnika mavsumlaridan kelib chiqqan holda, yonilg`i-moylash materiallari zaxirasini yaratish maqsadida chetdan uglevodorod xomashyosi olib kelish uchun byudjetdan ssuda ajratish;

maqsadli mablag`lar zararkunandalarga qarshi kurashish xarajatlarini qoplash, shuningdek, favqulodda vaziyatlarda hosilni saqlab qolish uchun Qoraqalpog`iston Respublikasi byudjetiga va viloyatlar mahalliy byudjetlariga 12-ilovaga muvofiq taqsimlanishini ta`minlash;

O`zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi bilan birgalikda un va non narxining keskin oshishiga, jumladan, «O`zdonmahsulot» AK korxonalarining bandlegi, shtatlar soni, tashkiliy tuzilmasini optimallashtirish orqali yo`l qo`ymaslik yuzasidan ikki oy muddatda choralar ko`rish topshirilganligi;

O`zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o`rinbosari Z.T.Mirzaev, Qishloq xo`jaligi vaziri B.T.Yusupov, Qoraqalpog`iston Respublikasi Vazirlar

Kengashi Raisi, viloyatlar va tumanlar hokimliklari zimmasiga ushbu bandeda nazarda tutilgan tadbirlarning o`z vaqtida va sifatli amalga oshirilishi uchun shaxsiy javobgarlik yuklanganligi;

i) O`zbekiston Respublikasi er resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastr davlat qo`mitasi (A.X.Abdullaev), Qishloq xo`jaligi vazirligi (B.T.Yusupov) manfaatdor idoralar bilan birgalikda 2018 yilning 1 oktyabrigacha ekin maydonlarini to`liq xatlovdan o`tkazish va ekin maydonlarining umumiy foydalaniladigan elektron ma`lumotlar bazasini yaratishni nazarda tutgan holda, ekin maydonlarining ball boniteti bo`yicha ma`lumotlar bazasini yangilash chora-tadbirlari dasturini Vazirlar Mahkamasiga tasdiqlash uchun kiritish topshirilganligi;

y) O`zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tasdiqlangan ball bonitetlar asosida ball boniteti 60 dan kam va hosildorligi past erlarda paxta xomashyosi etishtiradigan fermer xo`jaliklarini moliyaviy qo`llab-quvvatlash uchun Davlat byudjetidan zarur mablag`lar ajratilishini ta`minlash topshirilganligi;

k) O`zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o`rinbosari - Moliya vaziri J.A.Qo`chqorov, Qoraqalpog`iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi, viloyatlar va tumanlar hokimlarining birinchi o`rinbosarlari, tijorat banklari rahbarlari zimmasiga - paxta xomashyosi va boshqoqli don etishtirishni o`z vaqtida moliyalashtirish, fermer xo`jaliklarining mablag`lardan mustaqil va oshkora foydalanishi hamda ularni maqsadli yo`naltirishi, xarid qilinadigan paxta xomashyosi va boshqoqli don bo`yicha joriy yil oxirigacha to`liq hajmda o`zaro hisob-kitob qilish uchun manbalar shakllantirilishi;

O`zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining o`rinbosari S.I.Samadov, Qoraqalpog`iston Respublikasi, viloyatlar va tumanlar prokurorlari zimmasiga - xizmat ko`rsatuvchi tashkilotlar tomonidan talon-taroj va narxlarni asosiz oshirish holatlarining qat`iy oldini olgan holda, mineral o`g`itlar va yonilg`i-moylash materiallari etkazib berish bo`yicha shartnoma majburiyatlari bajarilishini nazorat qilish;

O`zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o`rinbosari - «O`zagrotexsanoatxolding» AJ boshqaruvi raisi N.S.Otajonov, Qoraqalpog`iston Respublikasi Ichki ishlar vazirining o`rinbosari va viloyat ichki ishlar boshqarmalari, tuman ichki ishlar bo`limlari (bo`linmalari) boshliqlari zimmasiga - O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 4 yanvardagi PQ-3459-son qarori bilan tasdiqlangan qishloq xo`jaligi texnikasini 2018 yilning 15 apreliga qadar etkazib berish, birinchi navbatdagi qishloq xo`jaligi texnikasini 2018 yilning I yarmida etkazib berish, shuningdek, mexanizatsiyalashtirilgan xizmatlarni o`z vaqtida ko`rsatish bo`yicha maqsadli parametrlar so`zsiz bajarilgan holda, zarur miqdordagi qishloq xo`jaligi texnikasi bilan ta`minlash;

O`zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o`rinbosari - «O`zbekneftgaz» AJ boshqaruvi raisi A.S.Sultonov zimmasiga - fermer xo`jaliklarining yonilg`i-moylash materiallari bilan o`z vaqtida va to`liq ta`minlanishi, belgilangan narxlarni saqlab turish hamda fermer xo`jaliklarini zarur miqdorda uzluksiz ta`minlash maqsadida qishloq xo`jaligining uch oylik ehtiyojni qoplaydigan zaxira tashkil etilishi;

O`zbekiston Respublikasi Xususiylashtirilgan korxonalariga ko`maklashish va raqobatni rivojlantirish davlat qo`mitasi raisi R.A.Gulyamov, O`zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining o`rinbosari S.I.Samadov zimmasiga - ushbu jarayon ishtirokchilarining monopol holatidan foydalangan holda narxlarning asossiz oshirilishiga yo`l qo`ymaslik;

O`zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o`rinbosari Z.T.Mirzaev, Qishloq xo`jaligi vaziri B.T.Yusupov, Suv xo`jaligi vaziri Sh.R.Hamraev, Qoraqalpog`iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi, viloyatlar va tumanlar hokimlari zimmasiga - erlarning meliorativ holatini yaxshilash va unumdorligini oshirish, paxta xomashyosi va boshqoqli don etishtirishning zamonaviy hamda resurs tejaydigan texnologiyalarini joriy qilish, fermer xo`jaliklarining kompleks agrotexnik tadbirlarni o`z vaqtida va sifatli bajarishi;

O`zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o`rinbosari Z.T.Mirzaev, Qishloq xo`jaligi vaziri B.T.Yusupov, Moliya vazirining o`rinbosari A.R.Karimov, «O`zagrokimyohimoya» AJ raisi U.A.Oxunov, «O`zkimyosanoat» AJ boshqaruvi raisi A.A.Abdullaev, Qoraqalpog`iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi, viloyatlar va tumanlar hokimlari zimmasiga - fermer xo`jaliklarining o`simliklarni kimyoviy va biologik himoya qilish vositalari bilan o`z vaqtida ta`minlanishi, ularga o`simliklarni himoya qilish, zararkunandalar, o`simliklar kasalliklari va yovvoyi o`tlarga qarshi kurashish bo`yicha kompleks agrokimyoviy xizmatlar ko`rsatilishi;

«Agrobank» ATB raisi S.S.Xo`jaev va bank filiallari rahbarlari zimmasiga - paxta xomashyosi va boshqoqli don etishtiruvchilarga o`z vaqtida kredit ajratilishi hamda tovarlar (xizmatlar, ishlar) etkazib beruvchilar bilan o`zaro hisob-kitoblarni ta`minlash bo`yicha javobgarlik yuklanganligi;

l) Vazirliklar, idoralar, huquqni muhofaza qilish va nazorat qiluvchi organlar, mahalliy davlat hokimiyati organlari rahbarlari paxta va don etishtiradigan tadbirkorlik sub`ektlari hamda fermer xo`jaliklarining qonuniy faoliyatiga, kuch, vosita va resurslar jalb qilishiga, ularning faoliyati bilan bog`liq bo`lmagan tadbirlar uchun jinoiy javobgarlikka tortishgacha bo`lgan javobgarlik to`g`risida qat`iy ogohlantirilganligi;

m) Quyidagilar o`z kuchini yo`qotgan deb hisoblanganligi;

Vazirlar Mahkamasining «Ammiakli selitrani ishlab chiqarish, tashish va sotishni nazorat qilishga doir qo`shimcha chora-tadbirlar to`g`risida» 2004 yil 30 apreldagi 204-son qarori;

Vazirlar Mahkamasining «Yoqilg`i-energetika resurslari bilan o`z vaqtida ta`minlash bo`yicha qo`shimcha chora-tadbirlar to`g`risida» 2017 yil 14 noyabrdagi 913-son qarori 1-bandining beshinchi va oltinchi xatboshilari.

n) O`zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga boshqa manfaatdor vazirliklar va idoralar bilan birgalikda qonun hujjatlariga ushbu qarordan kelib chiqadigan o`zgartirish va qo`shimchalar to`g`risida O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga ikki oy muddatda takliflar kiritish topshirilganligi ma`lumot uchun qabul qilinsin.

3. Quyidagilar:

Qoraqalpog`iston Respublikasida davlat tomonidan xarid qilinadigan 2018 yil hosili paxta xomashyosini etishtirish xarajatlarini moliyalashtirish uchun ajratiladigan kredit resurslarini tumanlar, oylar va xarajatlar turlari bo`yicha kafolatli taqsimlash hajmlari 1 va 2-ilovalarga muvofiq;

Qoraqalpog`iston Respublikasida davlat tomonidan xarid qilinadigan 2018 yil boshqoqli don ekinlari hosilini etishtirish xarajatlarini moliyalashtirish uchun ajratiladigan kredit resurslarini hududlar, oylar va xarajatlar turlari bo`yicha kafolatli taqsimlash hajmlari 3 va 4-ilovalarga muvofiq tasdiqlansin.

4. Qoraqalpog`iston Respublikasi Moliya vazirligi, Qishloq xo`jaligi vazirligi, «Taxiatoshdonmahsulotlari» AJ (Utemuratov),

«Qoraqalpogʻdon-mahsulotlari» AJ (Xudoyarov), «Toʻrtkoʻldonmahsulotlari» MChJ (Rozmetov), «Chimboydonmahsulotlari» MChJ (Bayniyazov), «Qoʻngʻirot un zavodi» AJ (Abdijamilov), paxta tozalash korxonalarini tumanlar hokimliklari bilan birgalikda «Agrobank» ATB tuman filiallariga va qishloq xoʻjaligi ishlab chiqaruvchilariga uch kun muddatda:

2018 yil hosili paxta xomashyosini va boshqoqli don ekinlari hosilini navlar va klasslar boʻyicha xarid qilish uchun davlat tomonidan kafolatlangan narxlarini;

keyinchalik mablagʻlarni «Agrobank» ATB tuman filiallarida joylashtirish orqali davlat tomonidan xarid qilinadigan 2018 yil hosili boʻyicha oylar va tumanlarga boʻlingan kredit resurslarining kafolatlangan hajmlarini maʼlumot uchun etkazsin.

5. Vazirliklar, idoralar, huquqni muhofaza qilish va nazorat qiluvchi organlar, mahalliy davlat hokimiyati organlari rahbarlari paxta va don etishtiradigan tadbirkorlik subʼektlari hamda fermer xoʻjaliklarining qonuniy faoliyatiga, kuch, vosita va resurslar jalb qilishiga, ularning faoliyati bilan bogʻliq boʻlmagan tadbirlar uchun jinoiy javobgarlikka tortishgacha boʻlgan javobgarlik toʻgʻrisida qatʼiy ogohlantirilsin.

6. Qoraqalpogʻiston Respublikasi Vazirlar Kengashining 2004 yil 6 maydagi «Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004 yil 30 apreldagi 204-sonli «Ammiakli selitrani ishlab chiqarish, tashish va sotishni nazorat qilishga doir qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida»gi qarori haqida»gi 80/3-sonli qarori oʻz kuchini yoʻqotgan deb hisoblansin.

7. Vazirliklar va idoralar oʻzlari qabul qilgan normativ-huquqiy hujjatlarini belgilangan muddatda ushbu qarorga muvofiqlashtirsinlar.

8. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish Qoraqalpogʻiston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisining birinchi oʻrinbosari A.Tajetdinov va oʻrinbosari S.Xojametov zimmlariga yuklansin.

Qoraqalpogʻiston Respublikasi

Vazirlar Kengashining Raisi

Q.Sariev

Koʻrib chiqildi:

- 
- 
- 

[Vazirlar Kengashi](#) [Statistik va tahliliy ma'lumotlar](#)
[Vazirliklar va idoralar](#) [Shahar va tuman hokimliklari](#)
[Hujjatlar](#) [Respublika mehmonlariga](#) [Elektron hukumat](#) [Interaktiv davlat xizmatlar](#)